

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE DEVELOPMENT OF NOVEL WRITING IN OMANI LITERATURE****Makhfuza B. Shamsimatova***1st-year Basic Doctoral Student**Higher School of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*mahfuzairismatova63@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Omani literature, the novel genre, Abdullah al-Ta'i, Saif al-Rahbi, Nizwa journal, Omani novelists.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: Novel writing in Omani literature is currently experiencing rapid development. The confident entry of new writers into the literary field has further increased scholars' interest in this literature. This article discusses the development of novel writing in Omani literature. The study lists the factors that have contributed to the development of this genre and also mentions the names of well-known novelists.

UMMON ADABIYOTIDA ROMANNAVISLIKNING RIVOJI**Maxfuza B. Shamsimatova***1-kurs tayanch doktorant**Arabshunoslik oliy maktabi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*mahfuzairismatova63@gmail.com*Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: ummon adabiyoti, roman janri, Abdulloh Toiy, Sayf Rahbiy, "Nizva" jurnali, ummonlik romannavislar.

Annotatsiya: Ummon adabiyotida romannavislik bugun jadal rivojlanishni o'z boshidan o'tkazmoqda. Yangidan-yangi qalamkashlarning adabiyot maydoniga dadil kirib kelishi olimlarning ushbu adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur maqolada ummon adabiyotida romannavislikning rivoji haqida so'z boradi. Ishda janrning rivojlanishiga turtki bo'lgan omillar sanab o'tilgan bo'lib, taniqli romannavis ijodkorlar nomi ham zikr qilingan.

РАЗВИТИЕ РОМАННОГО ЖАНРА В ОМАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Махфуза Б. Шамсиматова

Базовый докторант 1-го курса

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

mahfuzairismatova63@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: оманская литература, жанр романа, Абдуллах ат-Таи, Саиф ар-Рахби, журнал «Низва», оманские романисты.

Аннотация: В настоящее время романное творчество в оманской литературе переживает стремительное развитие. Уверенное вхождение новых писателей в литературное пространство вызывает всё больший интерес исследователей к данной литературе. В данной статье рассматривается развитие романного жанра в оманской литературе. В работе перечисляются факторы, способствовавшие развитию данного жанра, а также упоминаются имена известных писателей-романистов.

Kirish. Roman janrining arab adabiyotiga kirib kelishi va rivojlanish bosqichlari haqida ilmiy kuzatuvlar olib borgan olimlar mazkur masalada turfa xil fikrlarni ilgari suradilar. Bir guruh olimlar romanni boshqa hikoyaviy janrlar bilan o‘zaro bog‘lab, uni qissa va hikoyaning bir shakliyi ko‘rinishi deb iddao qiladilar va romanning arab adabiyotida tarixiy manbalarga egaligini fikrlari dalili sifatida ko‘rsatadilar. Bu guruh olimlari romanning chuqur ildizlari Johiz va Ibn Muqaffa asarlariga, shuningdek, Badi Zamon Hamadoniy va Haririy maqomalariga borib taqalishini aytadilar (Mafquda, Salih, 2005, p. 8).

Boshqa guruh munaqqidlari esa romanni chetdan o‘zlashtirilgan janrlardan biri deb biladilar. Mazkur fikrlarni ilgari surgan olimlar orasida taniqli adabiyotshunos Ismoil Adham ham bor. Olim XX asr hikoyaviy adabiyotini arab adabiyotining tarixiy bosqichlaridan uzilgan holda talqin qiladi va roman janrini G‘arb bilan aloqa natijasida arab adabiyotida yuzaga kelgan yangi hodisa deb hisoblaydi. Bu fikrlarga yana bir munaqqid Butrus Hallaq ham qo‘shiladi. Tadqiqotlarining birida olim shunday deydi: “Arab romani G‘arbdan o‘zlashtirilgan yoki undan kuchli ta’sirlangan san’at turi sifatida paydo bo‘lganiga hech bir kishi qarshi chiqolmaydi” (Muradi, 2012, p. 104).

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, arab adabiyotida romanning paydo bo‘lishi XIX asrning ikkinchi yarmidan so‘ng yuzaga kelgan G‘arb romanining bevosita ta’siriga borib taqaladi. Bu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, Yevropada ham roman muayyan tarixiy

bosqichda shakllangan va jamiyat taraqqiyoti hamda ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi bilan taraqqiy topgan. Ayrim adabiyotshunoslar Yevropadagi o'rta asr romanlari bilan o'sha davrda arab tilidan tarjima qilingan asarlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik borligini ko'radilar. Xususan, Andalusiya (Ispaniya) arablari ta'siri tufayli ritsarlik romanlari, sarguzasht va mo'jizaviy hikoyalarda arab rivoyat uslubiga o'xshash jihatlar mavjud, deb hisoblaydilar (Muradi, 2012, p. 104).

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ummon adabiyotida romannavislikning rivoji xususida jahonning bir qancha olimlari ilmiy kuzatuvlarni amalga oshirganlar. Bu o'rinda, Ali Hamad Forsiy, Yusuf Ma'mariy, Mahmud Hamad (Al-Farsi, A.H.; Al-Ma'mari, Y.; Hamad, M. 2023, p. 112), Ismoil bin Muborak bin Solim Ajmiy (Al-Ajmi, 2024, p. 98), Hamad bin Amir bin Hamad Siyobiy (Al-Siyabi, 2025, p. 115), Favziya Sayf Ali Fahdiy, Zohir bin Badr G'afriy kabi olimlarni misol sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu olimlar ummon adabiyotida roman janrining bugungacha bosib o'tgan taraqqiyot yo'li haqida ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Tadqiqot materiallarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ular tavsifiy, qiyosiy tahlil asosida o'rganildi.

Natijalar. XVIII asr oxirlarida Arab adabiyotiga mustaqil janr sifatida kirib kelgan roman janri jamiyat taraqqiyoti, madaniy aloqalar va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi jarayonida shakllandi. Albatta, bu bilan arab adabiyotida ilgari o'ziga xos roman shakliga mos keladigan boshqa janrlar bo'lmagan, degan fikrga kelish to'g'ri bo'lmaydi. Bilaks, arab adabiyotining katta qismi hikoyaviy unsurlarga boy bo'lganligini tarixiy manbalar ham tasdiqlaydi. Ushbu fikrlarga suhbat hikoyalari, xalq siyratlari, diniy va falsafiy qissalar yorqin misol bo'la oladi.

Darhaqiqat, roman arab adabiyotida yuzaga kelgan davrdan boshlab milliy o'zlikni namoyon etish va G'arb mustamlakachiligiga qarshi kurashda samarali vosita bo'lib xizmat qildi. Shu sababli uning dastlabki ifoda tuzilishi avvalgi adabiy shakllarning, xususan, xalq romanlari, tarixiy voqealar va maqomalarning tabiiy davomi bo'ldi. Shu bilan birga, roman shakllanish jarayonida uni vujudga keltirgan ijtimoiy, iqtisodiy, milliy va madaniy o'zgarishlar ham unga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Ta'kidlash joizki, roman janri arab adabiyotiga kirib kelishi bilanoq bu mintaqa davlatlari orasida jadal rivojlanmadi. Albatta, bunga mamlakatlarda yuz bergan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar sabab bo'ldi. Misr, Suriya, Livan, Iroq kabi arab davlatlarida mazkur janr nisbatan ertaroq yoyildi va jadal rivojlandi, biroq Ko'rfaz arab mamlakatlari orasida esa ushbu jarayon uzoq vaqt talab qildi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, arab adabiyotida roman mustaqil adabiy janr sifatida shakllangach mintaqadagi davlatlar orasida bir muncha farqli ravishda yoyildi. Arab davlatlari

orasida ushbu janr biroz kech, aniqrog‘i, 1950-yilda kirib borgan mamlakatlardan biri, shubhasiz, Ummon sultonligi bo‘ldi. Hali-hamon an‘anaviy janrlar hukm surayotgan ummon adabiyoti uchun roman janri tamomila yangi bir hodisa bo‘ldi. Ummonlik qalamkashlar adabiyotlari uchun batamom yangilik bo‘lib kirgan romanni iliq kutib oldilar, biroq mazkur janrda ijod qilishga oshiqqanlari yo‘q. Bu o‘rinda alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, sultonlik adabiyotida roman hikoyachilik bilan yonma-yon bir vaqtda, yana ham aniqrog‘i, ummon uyg‘onish davrida, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish fonida yuzaga keldi.

Ummon adabiyotini sinchiklab o‘rgangan tadqiqotchilarning yakdil fikrlariga ko‘ra, mazkur janrda ijod qilgan ilk qalamkash Abdulloh Toiy hisoblanadi, negaki yozuvchi ilk roman nashrini e‘lon qilgan muallif sifatida ummon adabiyoti tarixida qolgan. Muhimi shundaki, adibning nashri garchi roman janri talablariga to‘liq mos kelmasa-da, munaqqidlar asarni to‘laqonli roman sifatida ko‘rsatadilar.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, ummon adabiyoti tarixidagi birinchi roman Abdulloh Toiyga tegishli bo‘lib, 1958-yilda nashr qilingan. Mazkur roman “Yashil tog‘ farishtalari” deb nomlanadi. Yozuvchi ushbu romanni yozish bilan cheklanib qolgani yo‘q. U 1972-yilda o‘zining yana bir romani hisoblangan “Katta yelkan”ni kitobxonlariga taqdim qilgan. Ijodkor uchun romanlari garchi shuhrat olib kelmagan bo‘lsa ham, uning nomini roman asoschisi sifatida adabiyot tarixida qolishiga sabab bo‘ldi. Haqiqatdan ham, Abdulloh Toiy yozgan asarlar zamonaviy ummon adabiyotida romanga xos jihatlarni o‘zida to‘laqonli namoyon qilmagan, biroq unga adabiyot tarixida ilgari ma‘lum bo‘lmagan tamomila yangi adabiy janrni yozishda tarixiy peshqadamlikka erishish imkonini berdi. Ushbu fikrlarga yana bir ijodkor Sayf Rahbiy ham qo‘shiladi. Sayf Rahbiy roman yozishdagi tarixiy ketma-ketlik nuqtayi nazaridan Abdulloh Toiyne hech bir shubhasiz ummon adabiyoti tarixida roman yaratgan ilk ijodkor deb biladi (Al-Shukayli, 2013, p. 14).

Roman janri paydo bo‘lishi bilanoq yozuvchilar orasida tez fursatlarda ommalashmagan bo‘lsa ham, so‘nggi yillarda ummon adabiyoti olamida roman va umuman, hikoyanavislik o‘zining mustahkam mavqeyini topa oldi, hatto bu jihatdan she‘riyatni ham ortda qoldirdi. Ushbu fikrlarga oxirgi yillar davomida ijodkorlar va hatto, shoirlar ham lirikada emas, balki ko‘proq hikoya, juda qisqa hikoya, roman yozishda o‘zlarini tobora sinab ko‘rayotganliklari ham yorqin misol bo‘la oladi.

Roman janrida qalam tebratishga bo‘lgan haqqoniy urinishlar o‘tgan asrning 70-yillariga to‘g‘ri keladi. Bu o‘rinda alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, har qanday yuzaga kelgan yangi adabiy janr singari, roman janri ham dastlab bir muncha badiiy qiyinchiliklarga duch keldi. Albatta, bu tabiiy hol edi, negaki ijod doimo o‘z ustida ishlash, tajriba to‘plash va asl roman qanday yozilishi kerakligi haqida tasavvurga ega bo‘lishni talab qiladi.

Badiiy asarlarning dunyo bo‘ylab keng tarqalishida, albatta, matbuotning hissasi katta bo‘ladi. Ummon adabiyotida ham roman yuzaga kelgach, u gazeta-jurnallar, xususan, madaniy nashrlar orqali o‘z kitobxonlari e‘tiboriga havola qilindi. Bu o‘rinda, ummonning “Nizva” jurnali hamda ummon matbuot sahifalari roman mualliflarini ushbu mintaqadagi boshqa arab davlatlari yozuvchilari va kitobxonlariga tanitishda muhim rol o‘ynaganligini alohida qayd qilish lozim (Al-Sharuni, 2001, p. 7).

Tarixiy nuqtayi nazardan qaralsa, zamonaviy ummon adabiyotining boshlanishi 1970-yilda Sulton Qobus hokimiyat tepasiga kelishi bilan yuzaga kelgan “Uyg‘onish davri”ga to‘g‘ri keladi (Al-Sharuni, 2001, p. 7). Aynan mana shu davrdan boshlab ummon adabiyoti o‘rta asrlarga xos turg‘unlikni parchalab, XX asrning zamonaviy hayotiga dadil qadam qo‘ydi.

Darhaqiqat, XX asr ummon adabiyoti tarixida oltin davrlardan biri hisoblanadi, negaki aynan mazkur asrning 80-90-yillarida roman janrida qalam tebratgan bir qator yozuvchilar paydo bo‘ldi. Bu o‘rinda Saud Muzaffar, Sayf Sa‘diy nomlarini alohida qayd qilish lozim. Keyingi yillarda ham roman rivojlanishda davom etdi, xususan, 90-yillar oxirida yozuvchi Ali Ma‘mariy o‘zining ilk romanini e‘lon qildi (Darwish, 1992, p. 8). Yangi mingyillikda esa romannavislar orasi yanada kengayib bordi – Husayn Abriy va Muhammad ibn Sayf Rahbiy shular jumlasidandir.

Ummon adabiyoti maydoniga roman janr sifatida kirib kelgach, rang-barang va hali yechimini topib ulgurmagan mavzularni ko‘tarib chiqdi. Ayrim romanlar mamlakat boshidan kechirgan muhim siyosiy voqealarni badiiy ifodalashda muhim rol o‘ynadi. Mazkur romanlarda oddiy kishilarning o‘zgarishiga sabab bo‘lgan jarayonlar, ularning turmush tarzi, hayotdan maqsadi, his-tuyg‘ulari va o‘y-fikrlari haqqoniy yoritib berildi. Ushbu fikrlarga taniqli yozuvchilardan biri Muhammad Rahbiyning “Abu Zayd Ummoniyning safari” romani yorqin misol bo‘la oladi.

Roman hech bir shubhasiz, bir jamiyatning milliy o‘zligi, madaniyati, urf-odatlari, hayot tarzini boshqa bir jamiyat vakillariga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Aynan shu hodisa ummon adabiyotida ham kuzatiladi. Ummon romanlari aynan sultonlik muhitigagina xos bo‘lgan urf-odatlar, an‘analar, xalq og‘zaki ijodi namunalar, ramz va timsollarni yaqqon ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, ummon romanlari o‘zida tarixiy-madaniy merosni mujassamlashtirgan bo‘lib, ularni badiiy ifodalaydi.

Sanoatning jadal rivojlanishi va neft sohasida yuzaga kelgan yuksalishlar ortidan Ummon sultonligi bir qancha sohalarda tub burulishlarni boshdan kechirdi. Albatta, ushbu jarayon jamiyat a‘zolarini zamon bilan hamnafas bo‘lishga undadi. Butun mintaqani qamrab olgan taraqqiyot madaniyatni va umuman, san‘atni ham chetlab o‘tgani yo‘q. Rivojlanish ortidan sultonlik adabiyoti bir qancha ilgari ma‘lum bo‘lmagan hodisalarga duch keldi, shulardan biri boshqa davlatlar adabiyotidan bahramand bo‘lish imkoni edi. Muhim tomoni shundaki, aynan tarjima

asarlar orqali yozuvchilar roman aslida qanday janr, uning boshqa adabiy janrlardan farqi aynan nimada ekanligi haqida tasavvurga ega bo'ldi. Shu bilan birga, o'sha davrda mamlakatdagi ayrim adiblarda roman yozishdagi badiiy mahorati hali to'liq shakllanmagan edi.

Yuqorida zikr qilingan, muallif Abdulloh Toiyga tegishli "Yashil tog' farishtalari" romani tarixiy jihatdan ilk ummon romani sanaladi. Shu adibning mazkur asaridan boshlab to yozuvchi Ali Ma'mariyning "Ko'priklar shiviri" (2007) romanigacha bo'lgan qariyb yarim asrni tadrijiy o'rganilsa, ummon adabiyotida yozilgan romanlar barmoq bilan sanarli darajada ekanligi anglashiladi (Al-Musawi, 2007, p. 6).

XX asrning 80–90-yillari ummon adabiyoti sahifalari yangidan-yangi adiblar nomini qayd qildi. Albatta, ular orasida Saud Muzaffar, Sayf Sa'diy, Ahmad Zubaydi, Badriya Shahiyani kabi bir qancha taniqli adiblar ham bor edi. 90-yillar oxirlariga kelib, bugungi kunda roman yozishda mashhurlikka erishgan adib Ali Ma'mariyning ilk romani dunyo yuzini ko'rdi. Keyingi yillar mobaynida ummon adabiyoti maydoniga yana bir qator romannavislar kirib kelishdi. Yozuvchilar Hamad Nasiriy, Muborak Umariy, Ali Ma'riy, Husayn Abriy va Muhammad ibn Sayf Rahbiy, Azhar Ahmad, Huda Hamd, Aziza Toiya va Joxa Harisiylar shular jumlasidandir.

Xulosa. Umuman olganda, ummon adabiyotida roman mustaqil adabiy janr sifatida shakllangach romannavislar orasida tezda ommalashmagan bo'lsa ham, qahramonlar ruhiy olamini ro'y-rost ifodalashda muhim ahamiyat kasb etdi. Yozuvchilar aynan roman orqali jamiyatdagi barcha voqealarni haqqoniy tasvirlash imkoniga ega bo'ldi. Shu bilan birga, ummon adabiyotiga romanning adabiy janr sifatida kirib kelganiga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa ham, bugunga kelib ularning adadi ko'paydi. Albatta, ummon adabiyoti osmonida yangidan-yangi umidli romannavislarning paydo bo'lishi, sultonlikda san'atga, xususan, adabiyotga bo'lgan e'tibor yanada yuksakligidan dalolat beradi. Ushbu asarlarni chuqur o'rganish, ularni ilmiy tahlilga tortish esa adabiyotshunos olimlar oldida har qachon dolzarb masalalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Ajmi, I.M. (2024). The Emergence of the Novel in Arab Countries. Nash'at al-riwaya fi al-duwal al-'arabiyya. – Innovations Journal of Humanities and Social Studies. Vol. 2, No. 1. – 98 p. (in Arabic)
2. Al-Fahdi, F.S.A., Al-Farsi, A.H., Al-Ma'mari, Y. (2023). The Development of Narrative Structure in the Omani Novel. Tatawwur al-binya al-sardiyya fi al-riwaya al-'umaniyya. – Majallat al-Andalus li al-'ulum al-insaniyya wa al-ijtima'iyya. Vol. 10, No. 83. – 103 p. (in Arabic)
3. Al-Farsi, A.H., Al-Ma'mari, Y., Hamad, M. (2023). Awareness of Difference in the Omani Novel: A Reading in the Content of Diversity. Wa'y al-ikhtilaf fi al-riwaya al-'umaniyya:

qira'a fi madmun al-tanawwu'. – Majallat al-Andalus li al-'ulum al-insaniyya wa al-ijtima'iyya. Vol. 10, No. 73. – 112 p. (in Arabic)

4. Al-Ghafri, Z.B. (2025). The Mental Image of Andalusia in Contemporary Omani Literature. Al-sura al-dihniyya li al-Andalus fi al-adab al-'umani al-mu'asir. – Dirasat: Human and Social Sciences. Vol. 52. – 121 p. (in Arabic)

5. Al-Musawi, Sh.S. (2007). The Experience of Narrative Fiction in the Sultanate of Oman. Tajribat al-sard al-riwa'i fi Saltanat 'Uman. – 66 p. (in Arabic)

6. Al-Sharuni, Y. (2001). Modern Omani Literature. Fi al-adab al-'umani al-hadith. – Cairo: Markaz al-Hadara al-'Arabiyya. – 94 p. (in Arabic)

7. Al-Shukayli, H. (2013). Analysis of the Narrator's Discourse in Selected Omani Novels. Tahlil khitab al-rawi fi namadhij min al-riwaya al-'umaniyya. – Lebanon: Arab Foundation for Studies and Publishing. – 85 p. (in Arabic)

8. Al-Siyabi, H.A. (2025). The Semiotics of Textual Thresholds in Omani Women's Novels. Simya'iyyat al-'atabat al-nassiyya fi al-riwaya al-nisa'iyya al-'umaniyya. – Master's thesis. – Al-Sharqiyah University, Sultanate of Oman. – 115 p. (in Arabic)

9. Darwish, A. (1992). Introduction to the Study of Literature in Oman. Madkhal ila dirasat al-adab fi 'Uman. – Sultanate of Oman: Dar al-Usra. – 87 p. (in Arabic)

10. Madi, S. (2008). Patterns of the New Arabic Novel. Anmat al-riwaya al-'arabiyya al-jadida. – Kuwait: National Council for Culture, Arts and Letters. – Silsilat 'Alam al-Ma'rifa. – 355 p. (in Arabic)

11. Mafquda, Salih. (2005). The Emergence of the Arabic Novel in Algeria: Foundation and Establishment. Nash'at al-riwaya al-'arabiyya fi al-Jaza'ir: al-ta'sis wa al-ta'sil. – 112 p. (in Arabic)

12. Muradi, M., Munsu, A., Qadiri, Q., Khakur, R. (2012). A Brief Overview of the Emergence and Development of the Arabic Novel. Lamha 'an zuhur al-riwaya al-'arabiyya wa tatawwuriha. – 116 p. (in Arabic)